



Oybek TOXIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: oybektohir@gmail.com

O'zFA etakchi ilmiy xodimi, f.f.d. D.Andaniyazova taqrizi asosida

RESEARCH OF TRANSFORMATION PROCESSES IN LINGUISTICS

Annotation

Linguotransformational processes are processes of change, new formation or adaptation of language units in different contexts. In this process, words, phrases and grammatical structures undergo semantic, phonetic, morphological, syntactic and pragmatic transformation. The concept of linguotransformational is one of the active terms in modern linguistics, formed from the combination of the words linguistics and transformation. The article discusses transformationology, linguotransformational processes and the poetics of linguistic changes that occur during the adaptation of dramatic works to the stage.

Key words transformationology, linguotransformational processes, linguistic changes, lexical-semantic transformation.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ТРАНСФОРМАЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Лингвотрансформационные процессы — это процессы изменения, нового образования или адаптации языковых единиц в различных контекстах. В этом процессе слова, фразы и грамматические структуры подвергаются семантической, фонетической, морфологической, синтаксической и прагматической трансформации. Понятие лингвотрансформационного является одним из активных терминов в современной лингвистике, образованным от сочетания слов «лингвистика» и «трансформация». В статье рассматриваются трансформациология, лингвотрансформационные процессы и поэтика языковых изменений, происходящих при адаптации драматических произведений к сцене.

Ключевые слова: Трансформациология, лингвотрансформационные процессы, языковые изменения, лексико-семантическая трансформация.

TILSHUNOSLIKDA TRANSFORMATSION JARAYONLAR TADQIQI

Annotatsiya

Lingvotransformatsion jarayonlar – bu til birliklarining turli kontekstlarda o'zgarishi, yangicha shakllanishi yoki adaptatsiya qilinishi jarayonlaridir. Bu jarayonda so'zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar semantik, fonetik, morfologik, sintaksik va pragmatik jihatdan transformatsiyaga uchraydi. Lingvotransformatsiya tushunchasi - Lingvistika va transformatsiya so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan zamonaviy tilshunoslikdagi faol terminlardan hisoblanadi. Maqolada transformatsiologiya, lingvotransformatsion jarayonlar va dramatik asarlarning sahanaga ko'chirilishida yuz beradigan lisoniy o'zgarishlar poetikasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlari: Transformatsiologiya, lingvotransformatsion jarayonlar, lisoniy o'zgarishlar, leksik-semantik transformatsiya.

Kirish. Jahon tilshunosligida transformatsiologiya ilmiy yo'nalish sifatida so'nggi o'n yilliklarda jadal sur'atlarda rivojlanib, til tizimining faol, dinamik va o'zgaruvchan tabiatini tadqiq etishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, lingvotransformatsiologiya deb atalayotgan tadqiqot sohasi tilning shakliy, mazmuniy, kognitiv va kommunikativ o'zgarish jarayonlarini ochib beradi. Til birliklarining fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik jihatdan qayta tashkillanish jarayonlari matn tilshunosligi, lingvopragmatika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi kognitiv tilshunoslik sohaslarining tadqiqot metodlari asosida o'rganiladi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda tilning globallashuv sharoitidagi o'zgarishlariga ham e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, korpus lingvistikasida, raqamli va kreolizativ matnlar semantikasini aniqlashda, mashina tarjimai sifatini tahlil qilish hamda lisoniy muqobilik imkoniyatlarini o'rganishda, shuningdek, multimodal kommunikatsiyadagi o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini tadqiq qilishda transformatsiya nazariyasi muhim metodologik asos sifatida qo'llanilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida birinchi marta Qirim davlat pedagogika instituti professori V.N.Migirin o'zining rus tilidagi ergash gaplarning evolyutsiyasi hamda bosh va ergash gaplarning turli xil transformatsiyalari masalasiga bag'ishlangan dissertatsion tadqiqotida qo'llagan edi. [9] So'zlarning nutq jarayonida turli o'zgarishlarga uchrashi N.I.Grech, A.X.Vostokov, F.I.Buslayev, G.P.Pavskiy, A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatov va boshqalar tomonidan u yoki bu darajada o'rganilgan. Masalan, A.M.Peshkovskiy so'zning nutqqa ko'chishida tovush o'zgarishiga uchrashini ham bu hodisa tarkibida o'rganilgan. Shuningdek, semantik o'zgarishlar, so'zning ma'no qirrasidagi o'zgarishlar va turkumlik belgilarida namoyon bo'ladigan transformatsiyalarni ko'rsatib o'tgan. A.A.Shaxmatov esa nutq jarayonida gapning sintaktik strukturasi o'zgarishlarga e'tiborni qaratadi. Olim substantivatsiya, adyektivatsiya, verbalizatsiya, pronominalizatsiya, adverbializatsiya, konyunksionalizatsiya kabi hodisalarni mazkur termin asosida izohlaydi. Rus tilshunosligida "diaxron transformatsiya", "transpozitsiya", "konversiya" kabi atamalar ham borki, har birining qo'llanish

doirasi o'ziga xos. O'zbek tilshunosligida M.Yo'ldoshev "Badiiy asarning sahnalashtirilishida namoyon bo'ladigan lingvotransformatsion jarayonlar" maqolasida mazkur masalaning mohiyati, zarurati ilk bor yoritilgan, muayyan nazariy xulosalar bildirilgan. [10]

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda transformatsion jarayonlar mavzusini yoritishda nazariy manbalarga tayanildi va Usmon Azimning "Tong otgan taraflarda" dramasi sahna ko'chirilishida o'zgarishga yuz tutgan fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik-sintaktik birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil, semantik-stilistik, lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytib o'tilganidek, so'nggi o'n yilliklarda dunyo ilm-fanida transformatsiologiya - moddaning shakliy va mazmuniy o'zgaruvchan tabiatini o'rganuvchi alohida ilmiy yo'nalish sifatida tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Xususan, lingvotransformatsiologiya deb atalayotgan tadqiqot sohasi tilning shakliy, mazmuniy, kognitiv va kommunikativ o'zgarish jarayonlarini ochib beradi.

"Keyingi yillar jahon filologik izlanishlarida mavzu va obrazlar, syujet va timsollar transformatsiyasi masalasi ilmiy-nazariy jihatlardan alohida poetik hodisa sifatida baholanmoqda, antik va Sharq an'anaviy poetik obrazlari, motivlar transformatsiyasi o'rganilmoqda. Transformatsiya lotincha (transformatio - o'zgartirish) so'z bo'lib, turli jabhalarda, san'at turlarida o'ziga xos ma'nolarda qo'llaniladi." [7] X.Xolmurodov Alisher Navoiy she'riyatidagi obraz-timsollar transformatsiyasi tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiyasida mazkur atamni atroflicha izohlaydi, boshqa olimlarning fikrlariga munosabat bildiradi va yakuniy xulosasini shunday bildiradi: "transformatsiya hodisasi bir holdan boshqa holga o'tish yoki bir shakldan boshqa shaklga o'tish, o'zgarish, bir holni boshqa holga o'tkazish, o'zgartirishni anglatadi." [7] Adabiyotshunos B.Sarimsoqov transformatsiya atamasini "ma'lum bir janr, motiv va obrazning uzviy rivoji" jarayonidagi o'zgarishlarga nisbatan qo'llanilishini aytadi [6]. Tilshunos J.Eltazarov mazkur terminga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashib, shunday izohlaydi: "Moddiy va ma'naviy olamdagi barcha narsalarning o'zgarishi va bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishi, ularning voqe bo'lishi, hukm surishi va taraqqiyotining zaruriy shaklidir [8]."

Ilm-fanning muttasil taraqqiyoti natijasida dunyo tilshunosligida transformatsiologiya yangi ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanib, til tizimining ichki tuzilishi, uning o'zgaruvchanligi va dinamik xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu yo'nalishdagi ishlarda til birliklarining jonli nutq, matn ko'rinishlari va vizuallashtirish jarayonidagi shakliy hamda mazmuniy jihatdan transformatsiyalanish mexanizmlari keng tadqiq qilinmoqda. Transformatsiologiya nazariyasiga ko'ra, til statik hodisa emas, balki doimo harakatda, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida yangilanib boradigan tizimdir. Shu sababli, bu yo'nalish tilni faqat shakliy jihatdan emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va kommunikativ muhiti bilan bog'liq holda izohlaydi. N. Chomskiy tomonidan ilgari surilgan yangi lingvistik kontseptsiya - generativ (transformatsion) grammatika 20-asr o'rtalarining eng muhim intellektual yutuqlaridan biri hisoblanadi. Generativ (transformatsion) grammatikaning ta'siri nafaqat tilshunoslikka, balki ilmiy bilimlarning boshqa ko'plab sohalari - hisoblash faniga, psixologiyaga, sotsiologiyaga va antropologiyaga ham ta'sir ko'rsatdi. N. Chomskiy tomonidan taklif qilingan nazariya 20-asr tilshunosligida bir qator metodologik muammolarni hal qildi:

birinchi navbatda, u iqtisodiy, aniq va kuchli "rasmiy lingvistik tuzilmalarni tavsiflash apparati"ni ishlab chiqdi. N. Chomskiyning kontseptsiyasi 20-asr o'rtalarida mavjud bo'lgan g'oyalardan shunchalik sezilarli darajada farq qildiki, ba'zi mutaxassislar uni "Chomskiy inqilobi" deb atashadi. [2] Darhaqiqat, generativ grammatika yangi va keng qamrovli yondashuv bo'lib, Amerika va Yevropa olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda mutlaqo yangi yo'nalishni belgilab berdi [3].

Yuqorida aytib o'tilganidek, transformatsiya, keng ma'noda, lingvistik birliklar yoki elementlarning transformatsiyasi sifatida tushuniladi. Sintaktik birliklar elementlarining eng oddiy o'zgarishlari ularning qayta joylashishi, almashtirilishi yoki almashtirilishi, qo'shilishi va kamaytirilishi va o'chirilishi natijasida yuzaga keladi. 1960-yillardagi strukturaviy tilshunoslikda sintaksisning transformatsion tahlili usuli keng e'tirofqa sazovor bo'ldi.

Transformatsion tahlil usuli "tilning sintaktik tizimini bir qator kichik tizimlarga bo'lish mumkin, ulardan biri yadro, asl nusxasi va qolganlari uning hosilalari. Yadro kichik tizimi elementar jumla turlarining to'plamidir; har qanday murakkablikdagi har qanday sintaktik turi bir yoki bir nechta yadro turlarining transformatsiyasi, ya'ni bir qator transformatsiyalarga uchragan yadro turlarining ma'lum kombinatsiyasi" tarzidagi qarashga asoslanadi. [1] Chomskiyning so'zlari bilan aytganda, grammatika ma'lum bir tilning to'g'ri ("belgilangan") jumlarini yaratadigan mexanizm turidir. Nutqda ba'zan kichik bir birlikni boshqasi bilan almashtirish orqali nutqning semantik strukturasi o'zgartiriladi. Bunday transformatsiyalar nutqni idrok etish jarayonlarining ham murakkablashuviga sabab bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar tilni o'zlashtirish jarayonida turli transformatsiyalarni tabiiy ravishda sinab ko'radilar. Ko'pgina hollarda, bola matnini so'zma-so'z takrorlamaydi, balki unga ba'zi o'zgarishlar kiritadi. Eng keng tarqalgan usullardan biri bu so'z tartibini o'zgartirishdir. Bundan transformatsion jarayonlarning til taraqqiyoti bilan bog'liq g'oyatda tabiiy hodisa ekanligi anglashiladi.

Lingvotransformatsiya bilan bog'liq tadqiqotlarning ko'pchiligi tarjimshunoslikda kuzatiladi. "Bir tildan boshqa tilga tarjima qilinishi ham matn transformatsiyasi hisoblanadi. Tilni mukammal bilish odatda so'zlovchining fikrlarni ifodalash uchun turli xil vositalardan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi. Til bilimi qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning sinonimlardan foydalanish salohiyati shunchalik keng bo'ladi. Shunday qilib, so'z tartibini o'zgartirish, "sinonim" so'z almashtirishlari, matnning ayrim qismlarini qayta tuzib chiqish paytida tushirib qoldirish, tushuntirish yoki aniqlashtirish paytida yangi elementlarni kiritish kabi transformatsiyalar tabiiy nutq faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi. Ona tilida so'zlashuvchilar muloqot paytida ongsiz ravishda va doimiy ravishda transformatsiyalarni amalga oshiradilar [5]."

Darhaqiqat, "jonli til o'zining amal qilinish jarayonida to'xtovsiz o'zgarib borishga mahkumdur. Tilning o'zgarishi va rivojlanib borishi uning yashab qolishining zarur sharti bo'lib hisoblanadi." [8] Shu ma'noda tildagi har qanday o'zgarishning mohiyatini o'rganish orqali lisoniy shaxsning imkoniyatlarini ham aniqlash mumkin bo'ladi. Tilshunos Sh.Safarov o'zining "Pragmalingvistika" nomli monografiyasida "har bir yangi matn ma'lum darajada til birliklari tanlovini aks ettiruvchi yangi lisonidir. Shuning uchun ham matn, xuddi diskurs kabi, doimiy (turg'un) mazmunga ega bo'lgan yopiq tizim sifatida qaralmasligi kerak, matnning shakllanishi va mazmuniy rivoji sinergetik jarayondir. Bu jarayon tekis hamda sakrash yo'li bilan rivojlanadigan bosqichlardan iboratdir. Ushbu bosqichlardagi o'zgarishlar bevosita mazmun transformatsion

siyasiga sabab bo'lishi aniq" deya matnning semantik transformatsiyasini asoslaydi [6].

D.N.Shmelev transformatsion jarayonlarning til vazifalari talabiga ko'ra amalga oshirishini bayon qiladi: "Tilning estetik vazifasi, albatta, so'zlashuv nutqida ham doimiy ravishda namoyon bo'ladi. Lekin baribir bu vazifani so'zlashuv nutqida etakchi deb bo'lmaydi, badiiy matnlarda esa til hamisha ayni shu alohida vazifasi bilan ishtirok etadi (bu vazifa, albatta, tilga, uning barcha ko'rinishlariga hamisha xos bo'lgan kommunikativ vazifasini cheklamaydi, balki uni o'ziga xos bir shaklda transformatsiya qiladi)". Demak, tilning estetik vazifasi butun o'ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifani ham transformatsiya qilgan, badiiy manfaatlariga to'lasicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy nutqda namoyon bo'ladi [4].

Transformatsion jarayonlar natijasida namoyon bo'ladigan badiiyatni o'rganish lingvopoetikaning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Biz mustaqillik yillarida yozib sahnalashtirilgan ayrim dramatik asarlardagi lisoniy o'zgarishlarni, xususan, badiiy matnning leksik-semantik sathidagi transformatsiyalarni kuzatish orqali buni dalillashga harakat qildik. Bunda Usmon Azimning "Tong otgan taraflarda" asarining sahnalashtirilishida kuzatilgan ayrim so'z va iboralarning muayyan maqsad bilan o'zgartirilishiga e'tibor qaratildi. Usmon Azimning mazkur nasriy dramatik dostoni O'zbekiston Milliy akademik teatrida sahnaga qo'yildi. Asarda millatimizning uzoq o'tmishi, mamlakat tarixi va o'zlik, e'tiqod, ona yurt, or-nomus kabi yuksak tuyg'ular haqida so'z boradi. Yosh rejissyor Asqar Xolmo'minov sahnalashtirgan mazkur asar qahramonlarini Erkin Komilov, Lola Eltoyeva, Gulnora Jumanazarova, Hamza Hasanov va Saida Saidbekova kabi iste'dodli aktyorlar ijro etganlar. Leksik-semantik o'zgarishlarning mantig'i, albatta, poetik maqsad bilan amalga oshadi. Masalan, asar matnida qo'llanilgan "otiladi" so'zi ijroda "bo'g'iladi" so'zi bilan almashtiriladi. Asar qahramonlaridan biri Tongyorug' nutqidagi bu transformatsiyaning zamirida, hodisani ijtimoiylashtirish maqsadi yotadi. Chunki "otiladi" fe'li g'ozga nisbatan ma'qul bo'lishi mumkin. Ona nutqidagi "bo'g'iladi" fe'li esa jamiyat bilan bog'liq holda tushuniladi. Jamiyatda iste'dodli odamlarning yashashga haqqi yo'qligi,

ularning bo'g'ilishi, ya'ni har tomonlama siquvga olinishi kabi ma'nolar real ifodalanadi. Shu ma'noda zo'ring yashashga haqqi yo'qligi haqidagi mazmun g'oz obrazidan chiqib "odamlar" ma'nosi bilan kengayadi.

Yoki "ko'z tegmasin" iborasi tilimizda bor va nutqda faol qo'llanadi. Sahnada bu ibora "odamlarning ko'ziga ko'rinma" tarzida ifodalangan. "Ko'z tegmoq" etnografik frazeologizmining ijroda tushirilishi natijasida undagi ma'no "Odamlarning ko'ziga ko'rinmay uch" gapiga yuklanadi. Bu o'rinda "o'q tegmasin" komponenti keyinga – pozitsion jihatdan jumla oxiriga o'tkazilgan. Gap bo'laklarining pozitsion o'zgarishida ham o'ziga xos mantiqiylik seziladi. Ya'ni "balandga uch" "odamlarning ko'ziga ko'rinma" "shunda o'q tegmaydi" kabi mantiqiy izchillik to'g'ri o'ylangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, lingvotransformatsiya tilshunoslik uchun tilning tarixiy, strukturaviy, semantik va pragmatik o'zgarishlarini o'rganishda muhim vositadir. U tilning dinamik tabiatini tushunish, tillararo ta'sirlarni tahlil qilish, til o'qitish va zamonaviy texnologiyalarda tilni qayta ishlashda katta ahamiyatga ega soha sanaladi. O'zbek tili misolida bu jarayon tilning madaniy va ijtimoiy muhitdagi moslashuvini, shuningdek, uning global kontekstdagi o'rnini ochib beradi hamda universal grammatika qoidalarini tasavvur qilishga yordam beradi. Usmon Azimning "Tong otgan taraflarda" nomli dramasi sahnalashtirilishida yuz bergan lingvotransformatsion jarayonlar tilshunoslikning turli aspektlarida, xususan, lingvopragmatika, lingvopoetika, psixolingvistika, transformologiya kabi tadqiqot sohalarining tutum va tamoyillari asosida o'rganilishi zarur. Tahlil qilingan misollar va aytilgan fikrlarga tayanib aytish mumkinki, lingvotransformatsiya tilning statik emas, balki doimiy o'zgarib turadigan tizim ekanini ko'rsatadi. Bu tilshunoslarga tilning tarixiy rivojlanishi, evolyusiyasi va zamon bilan moslashuvini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, lisoniy transformatsiya usullari tilning sintaktik va morfologik tuzilishidagi o'zgarishlarni tadqiq qilish imkonini ham beradi. Bu esa tilning ichki qoidalari va ularning qanday o'zgarib borishini, so'z yoki gaplarning qanday qilib bir shakldan boshqa shaklga o'tib borishini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev M. Badiiy tarjimada lisoniy transformatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari. / O'zbek tili va adabiyoti, 2025. №3.
2. Бондаренко И.В. Влияние генеративной лингвистики Н. Хомского на мировое языкознание / Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. Серия: Филология, педагогика, психология. – 2011. – 2.
3. Нан В. О роли трансформационной генеративной грамматики в психолингвистике. / Современное педагогическое образование. 2024, №1.
4. Niyazova G.G. Nasriy matnlarning lisoniy tahliliga sotsiopragmatik yondashuv. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021 yil №3.
5. Самаренкина С.З., Сергеева Ю.С. Трансформация как лингвистический элемент технических текстов // Филология и литературоведение. 2016. URL: <https://philology.snauka.ru/2016/01/1872> (23.12.2025).
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. - Toshkent, 2008 yil, -B.251. / 318 bet.
7. Xolmurodov X. Alisher Navoiy she'riyatida obraz-timsollar transformatsiyasi (Farhod va Shirin misolida) Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss avtoref. – Toshkent, 2017.
8. Eltazarov J.D. Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv. Monografiya. -Samarqand: SamDU, 2004.
9. Мигирин В.Н. Эволюция придаточного и разные виды трансформации главного и придаточного предложений в русском языке: дис. д-ра филол. наук. В 2-х тт. – Симферополь, 1954. – 638 с.
10. Yuldashev M. Badiiy asarning sahnalashtirilishida namoyon bo'ladigan lingvotransformatsion jarayonlar. International Journal on Integrated Education <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/555>